

**XALQ DEPUTATLARI
BERUNIY TUMAN
KENGASHINING
QARORI**



**XALÍQ DEPUTATLARI
BERUNIY RAYONLIQ
KEÑESINIŇ
QARARI**

2021 йил «12» октябрь

VI-35-31-13-182-K/21

Беруний туман ҳокимлиги

Beruniy tumani “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan “Ochiq budjet” axborot portali orqali eng ko‘p ovoz to‘plagan takliflar uchun mablag‘lar ajratish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021 yil 22 aprel kungi “Mahalliy budjet mablag‘lari sarflanishida jamoatchlik ishtirokini ta‘minlash to‘g‘risida”gi KQ-213-IV-son Qarori hamda O‘zbekiston Respublikasi budjet kodeksining 126-moddasiga asosan, “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan “Ochiq budjet” axborot portali orqali eng ko‘p ovoz to‘plagan takliflarni ko‘rib chiqib O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunning 6, 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari Beruniy tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Kun tartibidagi masala bo‘yicha tuman moliya bo‘limi mudiri O.Mambetsaburovning axboroti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Budjet ma‘lumotlarining ochiqligini va budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018 yil 22 avgustdagi PQ-3917-sonli hamda “Budjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2021 yil 13 apreldagi PQ-5072-sonli qarorlari ijrosi ta‘minlash maqsadida, “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi” mablag‘lari hisobidan, joriy yil 13 avgustdan 2 sentyabrgacha bo‘lgan muddat davomida Beruniy tumanida “Ochiq budjet” axborot portali orqali eng ko‘p ovoz to‘plagan 11 ta takliflar:

a) Beruniy tumani Mustaqillik mahalla fuqarolar yig‘ini Do‘stlik aholi manzilidagi 2 km ichki yo‘lga qum shag‘al (SHPS) to‘shash (taklif ID raqami 0120300003) xarajatlari uchun 90 000 000 (to‘qson million) so‘m;

b) Beruniy tuman Xalq ta‘limi bo‘limiga qarashli 28-sonli o‘rta ta‘lim maktabining sport zali polini ta‘mirlash (taklif ID raqami 0120300017) xarajatlari uchun 95 000 000 (to‘qson besh million) so‘m;

d) Beruniy tumani Mustaqillik mahalla fuqarolar yig‘ini Tinchlik aholi manzilidagi Mulla ko‘chasiga tungi yoritgich chiroqlarini o‘rnatish (taklif ID raqami 0120300041) xarajatlari uchun 20 000 000 (yigirma million) so‘m;

e) Bo‘ston mahalla fuqarolar yig‘inidagi Toj Mahal ko‘chasining piyodalar yo‘lakchasini beton qoplamasi bilan ta‘mirlash (taklif ID raqami 0120300419) xarajatlari uchun 300 000 000 (uch yuz million) so‘m;

f) Xorazm mahalla fuqarolar yig‘inida joylashgan Shayx Abbas Valiy ko‘chasida 2 km piyodalar yo‘lakchasini qurish (taklif ID raqami 0120300019) xarajatlari uchun 220 000 000 (ikki yuz yigirma million) so‘m;

g) Mustaqillik mahalla fuqarolar yig'ini Do'stlik aholi manzilidagi Xo'ja ovul ko'chasini asfalt qilish (taklif ID raqami 0120300008) xarajatlari uchun 200 000 000 (ikki yuz million) so'm;

h) Mustaqillik mahalla fuqarolar yig'ini Do'stlik aholi manzili Yangibuloq ko'chasiga transformator o'rnatish (taklif ID raqami 0120300193) xarajatlari uchun 60 000 000 (oltmish million) so'm mablag'lar ajratilsin;

i) Beruniy tumani To'qimachi mahalla fuqarolar yig'ini To'rtko'l Shox ko'chasidagi ko'p qavatli uyning tom qismini ta'mirlash (taklif ID raqami 0120300080) xarajatlari uchun 150 000 000 (bir yuz ellik million) so'm;

j) Beruniy tumani Shobboz ovul fuqarolar yig'ini Qurbog' aholi manziliga optik tolali internet tarmog'i tortish (taklif ID raqami 0120300389) xarajatlari uchun 100 000 000 (yuz million) so'm;

k) Beruniy tumani Xorazm mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan 5-A ko'p qavatli uyning tom qismini ta'mirlash (taklif ID raqami 0120300055) xarajatlari uchun 150 000 000 (bir yuz ellik million) so'm;

l) Beruniy tumani Lolazor mahalla fuqarolar yig'ini Taraqqiyot aholi manzilidagi yo'lni ta'mirlash (taklif ID raqami 0120300072) xarajatlari uchun 28 000 000 (yigirma sakkiz million) so'm, jami 1 413 000 000 (bir milliard to'rt yuz o'n uch million) so'm mablag'lar tegishli tartibda moliyalashtirilishiga ruxsat berilsin.

3. Xarajatlarni amalga oshirishga mas'ul tashkilotlar rahbarlariga:

ajratilgan mablag'lar doirasida belgilangan tartibda to'lovlarni amalga oshirish;

moliyalashtirish manbasini ochish uchun o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan hujjatlarni tuman moliya bo'limi va tuman g'aznachilik bo'linmasiga taqdim etish;

ajratilgan mablag'lardan to'g'ri, maqsadli va samarali foydalanilishini ta'minlash;

ajratilgan maqsadli mablag'larni o'z vaqtida va samarali ishlatilishi yuzasidan moliyaviy hisobotlar asosida tizimli o'rganish hamda o'rganish natijalariga ko'ra, ishlatilmagan va iqtisod qilingan mablag'larni tuman mahalliy budjetiga qaytarish choralarini ko'rish vazifasi yuklatilsin.

4. Tuman moliya bo'limi mudiri (O.Mambetsoburov)ga byudjet xarajatlar rejasiga belgilangan tartibda tegishli o'zgartirishlar kiritish;

tuman g'aznachilik bo'linmasi boshlig'i (Sh.Madaminovga)ga to'lovlarni o'rnatilgan tartibda va o'z vaqtida amalga oshirish hamda ajratilgan mablag'lardan maqsadli foydalanilishini nazorat qilish vazifalari topshirilsin.

5. Ushbu Qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjetni shakllantirish va uni ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi raisi (A.Yeshimbetov) hamda tuman hokimining birinchi o'rinbosari (F.Primov) zimmalariga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror tuman "Xalq minbari" gazetasida nashr qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



A.Saparbayev